

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.H.Бобожонов, Г.Г.Козлова

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash 111

D.T.Abduraimov

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

F.M.Mamadova

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi 121

M.M.Yuldashov

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati 125

N.J.Madaminova

Maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili 129

S.M.Sidikov

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

S.B.Erkinova

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari 139

IQTISODIYOT**M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

FALSAFA**I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) 153

Sh.Ismatov

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari 158

B.B.Asqarov

Dizayn fikrlashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli 161

I.A.Asatulloev

Alfred adlarning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

O.Ortiqov

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

A.M.Nurmuxammadjonov

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari..... 175

A.A.Sayitxonov

Ilmiy qadriyatlarining inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

SIYOSAT**A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari 191

S.N.Abdullayev

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 196

TARIH**Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



UO'K: 002.1.1.1:331.101.262.

**AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA EHTYOJ VA MANFAAT KATEGORIYASINING
NAMOYON BO'LISHI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)****ПРОЯВЛЕНИЕ КАТЕГОРИИ ПОТРЕБНОСТИ И ИНТЕРЕСА В ИНФОРМИРОВАННОМ
ОБЩЕСТВЕ (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)****MANIFESTATION OF THE CATEGORY OF NEED AND INTEREST IN AN INFORMED
SOCIETY (SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS)****Yuldashev Farrux Abduraxmanovich** 

Farg'ona davlat universiteti, falsafa va milliy g'oya kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya

Maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida ehtiyoj va manfaatlar kategoriyalarini tadqiq qilish, ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligining konseptual asoslari hamda ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berish, axborot kurashi makonida yoshlar ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlashdagi ziddiyatlar, jamiyatni zamonaviylashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida ehtiyoj va manfaatlar mushtarakligini ta'minlash yo'llari asoslangan.

Аннотация

В данной статье проведено исследование гармонии потребностей и интересов в деятельности молодежи в условиях информационного общества, раскрытие концептуальных основ и социально-философских аспектов гармонии потребностей и интересов, конфликтов в обеспечении потребностей и интересов молодежи в пространстве информационной борьбы, общности потребностей и интересов в процессе модернизации общества и построения гражданского общества на основе средств обеспечения.

Abstract

This article studies the harmony of needs and interests in the activities of young people in the information society, revealing the conceptual foundations and socio-philosophical aspects of the harmony of needs and interests, conflicts in meeting the needs and interests of young people in the space of information struggle, the commonality of needs and interests in the process modernization of society and building a civil society on the basis of means of provision.

Kalit so'zlar: jamiyat, axborot, bilim, ehtiyoj, maqsad, manfaat, uyg'unlik, dialektika, yoshlar faoliyati, globallashtirish, axborotlashgan jamiyat.

Ключевые слова: общество, информация, знание, потребность, цель, интерес, гармония, диалектика, активность молодежи, глобализация, информационное общество.

Key words: society, information, knowledge, need, goal, interest, harmony, dialectics, youth activity, globalization, information society.

KIRISH

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida olib borilayotgan demokratik islohotlar va modernizatsiyalashuv jarayonlari avvalambor yoshlar manfaatlariga, ularning hayoti va turmushini yuksaltirish, mehnatini qadrlash, ehtiyojlarini qondirishga qaratilganligini bugungi kunda jamiyat hayotida salmoqli siyosiy o'zgarishlar, ijtimoiy himoya choralari, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda inson ehtiyoj va manfaatlarining tabiiy, fiziologik, psixologik, moddiy-iqtisodiy, huquqiy-mafkuraviy hamda ma'naviy-axloqiy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Jahonda globallashtirish va axborotlashuv jarayonlarining tezlashishi natijasida, axborot va bilim bo'lgan axborotlashgan jamiyatning shakllanishi kuzatilmoqda. Dunyoning falsafiy tadqiqotlarida informatsion, virtual, axloqiy va estetik ehtiyojlarning ijtimoiy-falsafiy masalalari, kommunikativ va informatsion manfaatlar masalasi hamda axborot makoni uchun kurash, yoshlar ongini egallashga qaratilgan harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi asosida shakllanayotgan nizolar, qarama-qarshiliklarni tadqiq etish va yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish borasidagi izlanishlar olib borilmoqda. G'arb mamlakatlari olimlarining izlanishlarida manfaat va ehtiyoj, uning shakllanishi xususiyatlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berilgan. Sharq mutafakkirlari ijodi va asarlarida barkamol shaxs dunyoqarashini shakllantirishda, adolat, haqiqat, komil inson g'oyalari, uning shaxs, millat manfaati va ehtiyojlari bilan uyg'unligi masalalari yoritilganligini uchratish mumkin.

Inson ehtiyojlarini umumnazariy tahlil etish ularning tabiiy va ijtimoiy ko'rinishlari ularni tabiiy-ijtimoiy turlarga bo'linishidan qat'i nazar, dixotomik chegaralanishga asoslanadi. Bunday tahlilda turlicha moddiy va ma'naviy ehtiyojlar ijtimoiy ehtiyojlar bo'lib ko'zga tashlanishi, bularga iqtisodiy, axloqiy, intellektual, estetik, siyosiy va boshqa ehtiyojlar kiritilishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi Ehtiyoj va manfaatdorlik yoki manfaat tushunchalari keng qamrovli bo'lib, ular kishilarning fiziologik ehtiyojini qondirishdan tortib, to ularning ijtimoiy ehtiyojlarigacha bo'lgan shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bu ijtimoiy ehtiyojlar ma'lum bir davrda ishlab chiqarish usulining kelib chiqishiga sabab bo'lgan bo'lsa, boshqa bir davrda esa, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy ehtiyoj ko'rinishida namoyon bo'ladi. Jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlari taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida tarixiy jarayonning yo'nalishini belgilaydi. Ehtiyoj qanday shaklda rivojlanmasin, muayyan bir xalq yoki millat mentalitetining tub ildizlarini, ularning umummilliy manfaatlarini o'zida ifoda etadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi «milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan ezgu g'oya asosida olib borilayotganligi jamiyatda o'zgarishlar, islohotlar jarayonidan darak beradi. Demokratiya va ijtimoiy adolatga asoslangan insonparvar yetuk jamiyat qurishda, ushbu jarayonda yuksak maqsadlarga erishish asosida yoshlar mehnat faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil qilish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biriga aylandi. «Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini, Yangi O'zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi»[1]. Inson dunyoqarashini shakllanishi uning jamiyatda faolligi, yangilikka intiluvchanligi, va o'ziga bo'lgan ishonch orqali amalga oshadi. Bu o'z navbatida manfaatdorlik, har-bir insonni biror ish qilishga, ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan hissi orqali uni harakatga undaydi. Jamiyatda yoshlar bilan bog'lik bo'lmagan, ularning xayotiga kirmagan soxa yo'q. Yoshlar ehtiyoj va manfaatlarini o'rganish zarurati yoshlar bilan samimiy muloqot jarayonini tashkil etish, ularni muammolarini eshitish, o'rganish, yoshlar bilan ochiq gaplashishni talab etadi. Davlat rahbari Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: «Inson mafaatlari ta'minlash uchun esa, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak»[2]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda birinchi navbatda inson manfaatlari kuzatib boriladi va o'rganiladi.

Tadqiqotning vazifalari Inson manfaatlari yillar davomida shakllanib, jamiyat va xalq manfaatlari bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda har bir inson jamiyatning mohiyati, tuzilishi, rivojlanish qonuniyatlari va bosqichlari, davlatning ichki va tashqi siyosati, ularning ahamiyati, islohotlarning zarurligi, xalqning faoliyat, maqsad va vazifalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, ularni kuzatib borish va tegishli xulosa chiqarish lozim. Yoshlarning real ehtiyojlarini o'rganish, qiziqishlarini baholash ham ularning manfaatlarini ro'yobga chiqarishda muhim omil hisoblanadi. Yoshlar kundalik hayotida kitob mutolaasi madaniyati, globallashuv sharoitida axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ehtiyojlar haqidagi fikrlarni antik davr faylasuflari ta'limotlarida kuzatiladi. Xususan, Arastuning "Nikomax axloqi" asarida ehtiyoj ne'mat, muhtojlik, mol-mulkka intilish, istak-xohishlar, yeyish-ichish, tashnalikni qondirish sifatida ko'rsatib o'tilgan[3]. Rus tadqiqodchisi S.G.Vorkachev qadimgi faylasuflarning qarashlarini tahlil etib, baxtga erishish uchun rag'bat sifatida ehtiyojlarni aks ettirish, baxt kabi hayotiy faoliyatidan mamnunlik holatlari, turli xil tadbirlar bilan to'ldirilishi mumkinligi, insonning ko'plab qiziqishlari, ehtiyojlari bilan ifodalanishini, motivlari, istaklari, maqsadlari, buni his qilishni belgilab berishi, to'liqlik – bu barcha istaklar – “qiymat o'lchovi” dan iborat ekanligini ta'kidlaydi[4]. Bundan anglash mumkinki, qadimda istak, mayl va maqsadlar bevosita inson ehtiyojlarini ifodalagan. Yana bir olim T.Y.Silvestrovaning tadqiqotlarida ehtiyojning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillari tahlil etilgan. Inson hayoti bevosita turli xil ehtiyojlarni amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarda kechadi. Inson jamiyat bilan aloqaga kirishar ekan, ehtiyojlar ichida muhim bo'lgan ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish orqali kamolotga erishadi. Olimning ta'kidlashicha: “Ehtiyoj va manfaat inson faoliyati bilan namoyon bo'ladi va amalga oshiriladi. Mehnat–ehtiyojni qondirishning asosiy manbaidir”[5]. G.B.Svyatoxinaning asarida yozilishicha: “Manfaat – shaxs diqqat e'tibori ma'lum jarayonga, obyektga qaratiladi va ehtiyojga asoslanadi. Ehtiyoj –biror narsaga bo'lgan zaruriyat, muhtojlikdir. Agar ushbu holat organizmning fiziologik yoki biologik muhtojligini namoyon etsa, unda ehtiyoj fiziologik yoki biologiq ehtiyoj deb yuritiladi. Agar individning ijtimoiy borlig'i masalalari (maxsus qarorlar qabul qilish, o'zaro munosabatlar, jamiyatda o'z fikri va qarashlariga egaligi) bilan bog'liq bo'lsa ijtimoiy ehtiyojlar sifatida yuritiladi. Agar inson “ma'naviy ozuqa” ga muhtoj bo'lsa, ma'naviy ehtiyoj yuzaga keladi”[6]. deb ta'kidlaydi.

FALSAFA

Falsafiy adabiyotlarda yozilishicha inson ehtiyoj va manfaatlari obyektiv ravishda shartlangan bo'lib, (inson bularni amalga oshiradimi yoki yo'qmi) falsafiy tushuncha sifatida ifodalanadi. A.Muhtorov ehtiyojlarni tasniflashda jamiyat hayotining tub hamda muhim negizlarini tabiat, jamiyat, inson, iqtisod, mulk, xalq, millat, ijtimoiy guruh, ma'naviyat, mehnat, davlat manfaatlari nuqtai nazardan kelib chiqib yondashadi[7]. Ilmiy tadqiqotlarda ehtiyojning muhim belgisi qilib uning qondirilish xususiyati tilga olinadi. Ibrohim Karimov fikricha, individ ehtiyojlarini qondirish» uning amal qilishining eng muhim belgisidir[8]. A.Begmatov bu fikrni mohiyatan quyidagicha tushuntiradi: «ehtiyoj organizm yoki tizimning holatidan kelib chiqadigan borliqdagi narsa-hodisalarga bo'lgan munosabatdir»[9]. Ehtiyojga berilgan ta'riflar va ularning mohiyatini izohlovchi fikrlardan shu ma'lum bo'ladiki, ehtiyoj tabiiy zarurat va inson ichki intilishining ko'rinishidir. Biroq ba'zi adabiyotlarda ehtiyojning bu xususiyatiga yetarli e'tibor berilmaydi. «Falsafa» qomusiy lug'atida «ehtiyoj-inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog'liq ekanligini ifoda etuvchi holat»[10] deb ta'rif berilgan. Nazarimizda, bu yerda ehtiyojning yuqorida tilga olingan qondirish jihati yetarlicha ochilmagan. O'zbek tilining izohli lug'atida ehtiyoj avvalambor kundalik hayotda «biror narsaga talab; hojat, zarurat, muhtojlik»[11]ni anglatib, inson xayotining mehnati, faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlangan. Ehtiyojning tabiiy xususiyat, holat ekanligini e'tirof etgan holda yana shuni aytmochimizki, har qanday holat qondirilishga yo'naltirilishi jihatidan ehtiyoj tushunchasi tarkibiga kirishi mumkin. Falsafa, o'z mavzusining o'ziga xos xususiyati tufayli, psixologik yoki iqtisodiy tadqiqot omillarini o'zaro bog'lagan holda ehtiyojlar tabiatining xususiyatlarini qayd etadi, ularning namoyon bo'lishi odamda, ishlab chiqarishda va umuman jamiyatda mavjud deb qaraydi. Shu sababli ehtiyojlarni har xil turdagi muhim xususiyat deb aytishimiz mumkin. Inson ehtiyojlari ta'lim-tarbiya bilan shakllanishi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tarbiya, ko'nikma, malaka, odat, ma'naviyat, qadriyatlarni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun odam ehtiyojlarini qondirilishi ma'lum rejaga asoslangan, ijtimoiy taraqqiyot darajasi bilan bog'liq, ijodiy faollik bilan belgilanadi.

NATIJA VA MUXOKAMA

Falsafiy tadqiqotlarda ijtimoiy ehtiyojlarni alohida guruhga ajratish, asosiy xususiyatlarini aniqlab olishni taqozo etadi. Biroq bu ikki masala adabiyotlarda o'zining to'la yechimini topgan emas. Ehtiyojlar: tushuncha yoki voqelikning ma'lum bir tomoni (nafaqat odamga, balki jamiyatga ham xosdir). Ehtiyojlar tufayli inson va jamiyat obyektiv o'zaro bir-biriga bog'liqdir. Barcha hayotiy ehtiyojlar ichida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar alohida o'rin tutadi. Bu ehtiyojlar kishilarning yashashi, mehnat qilishi va hayot kechirishi uchun zarur moddiy ne'matlar hamda xizmatlarga nisbatan talabni nazarda tutadi. Shu jihatdan olganda, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni ham o'z ichiga oladi. Moddiy ehtiyojlar, bu avvalo, kishilarning o'zlari uchun foydali moddiy ne'matlarga ega bo'lish va ulardan hayotlarini davom ettirishda foydalanish xohish-istaklari va talablaridir. Bular iste'mol uchun zarur bo'lgan ko'plab hayotiy predmetlar va zeb-ziynat buyumlariini o'z ichiga oladi. Falsafiy jihatdan ehtiyojning qondirilish zaruriyati asosida subyektni hayotiy faoliyatga da'vat etuvchi botiniy sabab, jamiki tirik jonotning muhim tashqi shart-sharoitlarga tanlab, faol munosabatda bo'lishining birlamchi shaklidir. Ehtiyojlarni tasnif etish muammosi ularning tabiati, mazmundorligini tavsiflash to'g'risidagi masalaning mantiqiy davomi hisoblanadi. Inson ehtiyojlarini tizimlashtirish, ularni alohidalikka ajratish va ilmiy tasniflash bilan bog'liq bo'lgan murakkablik va qiyinchiliklar «ehtiyoj» tushunchasining maromiga yetgan ta'rif yaratilmaganligi bilan emas, balki ijtimoiy- ma'naviy hodisalarni tasnif qilishning umumnazariy hamda metodologik negizlari yetarli asoslanmaganligi bilan ham bog'langandir.

Ma'lumki, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar manfaatdan kelib chiqqan holda o'rnatiladi. Manfaat – individ va ijtimoiy guruxlar faoliyatining asosiy sababi hisoblanadi. Manfaat subyektiga ko'ra shaxs, guruh va jamiyat manfaatlariga bo'linadi. Muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan manfaat moddiy va ma'naviy manfaatlariga bo'linadi. Ma'naviy manfaatlar o'z navbatida siyosiy, guruh, axloqiy kabi turlarga bo'linadi. Manfaatlar muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan vujudga keladi. Bir so'z bilan aytganda ehtiyoj yo'q joyda manfaat ham bo'lmaydi. Qolaversa manfaat insonga ma'lum bir ne'mat sifatida ham namoyon bo'ladi. Manfaatlar birinchi navbatda ma'lum xalq hayotini belgilaydigan, uning faoliyatini ma'lum maqsadlarga yo'naltiradigan ijtimoiy munosabatlar, milliy ehtiyojlar, xalqning tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ruhiyati, an'ana va qadriyatlari tizimi bo'lib, ular o'zbek millati va xalqiga mansub alohida kishilar yoki biror-bir davlat fuqarosi bo'lgan odamlarning shaxsiy manfaatlar bilan uzviy bog'liqligini ifodalaydi. Shu ma'noda, u umumiy manfaatlar majmuidir. Bugungi kunda xalqning umumiy manfaatlar quyidagilardan iborat:

– mamlakatning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, sarhadlarning daxlsizligi;
– yurtning tinchligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, informatsion tahdidlardan muxofaza etilishi;
– Vatan ravnaqi, mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini yaratish;
– har bir oila va butun xalqning farovonligi, jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyillarining qaror topishi. Umumiy manfaatlarning namoyon bo'lishida uning umuminsoniy manfaatlar bilan uyg'unligiga erishishga yordam beruvchi ijtimoiy mexanizm umumbashariy qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Xalqimizning umumiy manfaatlari milliy ehtiyojlarni qondirishdan manfaatdorlik orqali butun dunyoda inson taraqqiyoti yo'lidagi ezgu va mushtarak maqsadlar orasidagi bevosita aloqani mustahkamlashga yordam berishga qaratilgan. Har bir yoshning inson sifatidagi ehtiyojlari ham mavjud. Uning ehtiyoji jamiyatda tutgan o'rni, uning shaxsiy manfaatini yuzaga keltiradi. Buning uchun shaxs o'z oilasida yashaydi, jamoada mehnat qiladi. Har bir jamoa, korxona boshqalaridan alohidalashgan holda xo'jalik yuritir ekan, shu jamoaning umumiy ishlovchilarini birlashtiradi. Har bir inson o'z yurtining fuqarosi sifatida umumdavlat manfaatini ifodalaydi, umumdavlat manfaati butun xalq maqsadining umumiyligidan dalolat beradi. Manfaatlarga turli jihatdan yondashish har bir insonning manfaatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi subyekt sifatida iqtisodiy faoliyat jarayonida o'zini qanday tutishi mumkinligini avvaldan taxmin qilishga yordam beradi. Iqtisodiy manfaatlar stimullar – anglash – motivatsiya – maqsad – faoliyat tarzida yuz beradi. Manfaattan kelib chiqqan holda maqsad qo'yiladi. Bugungi kunda xududlarda ilg'or texnologiyalarni joriy etish, har qaysi oilaning, ezgu maqsadlarini, hayotiy manfaatlarini ta'minlashga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Bu borada jamiyatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Yana bir jihat yoshlarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasida davlat tomonidan zarur sharoitlar yaratilmoqda. Ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at, sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi tez o'zgarayotgan davrda yoshlar oldiga yangi-yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Yoshlar masalalarida o'ta dolzarb bo'lgan o'z davrining muhim muammolarini yechishga qaratilgan sa'y-harakatlar jamiyat hayotining turli murakkab jarayonlari bilan uyg'un tarzda yuzaga keldi.

Mamlakatning yangi qonunchiligida yoshlarning jamiyat taraqqiyoti istiqboli asosi sifatida e'tirof etilishi, shuningdek, yoshlar tashkilotlari rivoji uchun imkoniyatlarning yaratilishi, yoshlarning zamonaviy kadrlar silsilasini yaratish maqsadi, yoshlar intellektual salohiyatining jahon hamjamiyatiga kirib borishini ta'minlash, yoshlar ichidan yangi mulkdorlar qatlamining vujudga kelishi kabi dolzarb yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. «Dunyodagi rivojlangan, demokratik mamlakatlarda yoshlar tashkilotlari dabdabali, balandparvoz tadbirlar o'tkazish emas, balki yoshlar bilan bevosita ishlash, ular bilan amaliy muloqot qilish, ularni o'yantirayotgan hayotiy muammolarni hal etishga asosiy e'tiborni qaratadi»[12]. Yoshlar muammolari ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning rang-barang tomonlariga davlat tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda yoshlarga qaratilgan siyosatning yangicha yo'nalishlari shakllantirildi, yangi davr mohiyatidan kelib chiqqan holda ularning ilmiy-nazariy asoslari demokratik jamiyat tamoyillari asosida qayta yaratildi, ular yechimini topish usullari davlat rahbari tomonidan belgilab berildi. Bugungi kunda jamiyat oldida turgan yoshlar tafakkuri va intilishlari bilan bog'liq ravishdagi muammolar davlat rahbari zimmasidagi o'z ijobiy yechimini kutayotgan muhim vazifaga aylandi.

Yoshlar tabiatiga xos bo'lgan maksimalizm va jo'shqinlikni yangi jamiyat barpo etish jarayonlariga jalb etish, ularni turli yot mafkuralarning buzg'unchi ta'siridan asrash, bozor iqtisodiyoti jarayonlari uchun yangi kadrlar zaxiralarini voyaga yetkazish, yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish kabi o'nlab masalalar tez orada hal qilinishga, davlat tomonidan muhokama etilishi va ta'minlanishga muhtoj edi. Bugungi kunda mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda azmu shijoatli yoshlarimizning o'rni va ta'siri tobora ortib borayotgani hammamizni quvontiradi. etiladi. Yoshlar kundalik hayotida ularning maqsad va vazifalari, qiziqish va kelajak rejalari, shaxsiy salohiyat va davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar, yoshlar siyosati va uning amaliyoti bilan bog'liq vaziyat har ikki tomon uchun ham – yoshlar siyosatini amalga oshirayotgan davlat tizimlari uchun ham, yoshlar siyosati qaratilgan yoshlar tashkilotlari va yoshlar ijtimoiy qatlami uchun ham o'ziga xos tarixiy mas'uliyat yuklaydi. Inson hayoti va faoliyati ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'lganligi uchun uning ehtiyojlari ham turli shakl va darajadagi funksiyalarni bajaradi. Falsafa fanida inson ehtiyojlari markaziy o'rin egallaydi chunki, ehtiyoj

FALSAFA

inson organizmi va ongi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida zaruriyatni bildiradi, ya'ni sharoit qandayligidan qat'iy nazar, u ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Ehtiyojlar insonning ichki dunyosi bilan bog'liq. Shu bois tadqiqotimizdan kelib chiqib, yoshlar faoliyatida ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ehtiyojlarni mohiyati va mazmunini o'rganishda ularni turli sohalarga bo'lib tadqiq etish mumkin. Inson hayotida ehtiyojlarni biologik, moddiy-iqtisodiy, ruhiy-ma'naviy turlarga bo'linadi. Aholining ehtiyojlari, jumladan fiziologik ehtiyojlari inson salomatligi bilan bog'liqdir. Fiziologik ehtiyojlar moddiy, ma'naviy, siyosiy kabi ehtiyojlar bilan birgalikda namoyon bo'lib, inson tarbiyasiga ta'sir etadi.

XULOSA

Ehtiyoj va manfaat kategoriyasini axloqshunoslik, ijtimoiy falsafa, siyosatshunoslik, iqtisodiy nazariya kabi fanlar o'rganadi. Ushbu tushunchalarning umumiy jihatlari, shakllanishi, rivojlanishi va qonuniyatlari ijtimoiy falsafa fanida keng tahlil etiladi. Qolaversa, yoshlar ehtiyoj va manfaatlari tomon intilishida, manfaatlarni anglashda ong, dunyoqarashning yuqorligi muhim rol o'ynaydi. Ushbu masalalar muntazam va tizimli shaklda tashkil etilsa, ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lishini kuzatish mumkin. Eng muhimi yoshlar bilan muloqot olib borish, ularni hayoti, turmushi, mehnatini yaqindan o'rganish, ularga yetarli sharoit va imkoniyatlar yaratib berish, ijtimoiy va ilmiy-ijodiy faoliyatlarini yuksaltirishga e'tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ш.Мирзиёев "Янги Ўзбекистон стратегияси". Тошкент. "Ўзбекистон" 2021. –Б 29
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимининг қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз Тошкент.: Ўзбекистон. -2017. 1-жилд, -Б.114.
3. Арасту "Ахлоқи кабир" Тошкент. 2015. Б-133.
4. А.В.Олянич Презентационная теория дискурса. Монография. Волгоград "Парадигма" 2004. Стр. 21-22
5. Сильвестрова Тамара Яковлевна. Генезис и сущность общественных потребностей 09.00.11. социальная философия. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора философских наук. Россия. Чебоксары. 2006.
6. Г.Б. Святохина. Философия. Философия человека, общества, истории и культуры. Учебное пособие. Уфа 2013. С. 20-21
7. Мухтаров Азамат Миллий ғоя такомилда эҳтиёж ва манфаатлари бирлиги. 09.00.11. – ижтимоий фалсафа ихтисослиги бўйича Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация Автореферати. Тошкент 2011. Б-13.
8. Каримов И. Маънавият, фалсафа ва ҳаёт.-Тошкент.:Фан, 2001. –Б. 78.
9. Бегматов А. Эҳтиёж // Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат.-Тошкент.: Шарқ, 2004. –Б.363.
10. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент.: Шарқ, 2004. –Б.268
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. Тошкент. 2020. - Б 347.
12. Мирзиёев Ш. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжихат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. // Халқ сўзи, 2017 йил 16 июн.